



## Isroil-falastin mojarosi Falastin turizm sanoati misolida.

Annayev Samad Turaqul o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya univeristeti magistri Telefon:+998995301802  
E-mail:samadannayev@gmail.com

### Annotatsiya

Ushbu maqola Isroil-Falastin mojarosi va uning Falastin turizm sanoatiga ta’siri bilan bog‘liq murakkab munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan. Mintaqaning boy madaniy va tarixiy merosi uni sayyoohlar uchun muhim turistik manzilga aylantirishi mumkin bo‘lsa-da, davom etayotgan ziddiyat uning salohiyatini sezilarli darajada pasaytiradi. Mazkur maqolada ushbu murakkab ssenariyga hissa qo‘shayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** turizm, turistik manzil, isroil-falastin mojarosi, G‘arbiy Sohil, bosib olingan hududlar, noqonuniy aholi punktlari, blokada, yahudiylar, falastinliklar

2017 yilda Jahon sayyoqlik tashkiloti tomonidan eng tez o‘sayotgan sayyoqlik yo‘nalishi sifatida qayd etilgan Falastin (Amar, 2017), Isroil bilan o‘rtadagi nizoga qaramasdan, xalqaro sayyoohlar orasida tobora mashhurlikka erishmoqda. Uchta yakkaxudolik dinlarining muqaddas zamini sizni “Muso, Iso va Muhammadning izidan yurishga” (Griffouieres, 2016) taklif qiladi.

Falastin dunyoga o‘zini ham tarixiy yer, ham ruhiy-ma’naviy markaz, ham geografik xilma-xil o‘lka sifatida tanishtiradi (Laura, 2016). Falastinga sayohat, shuningdek, isroil-falastin mojarosini yaqindan tushunish uchun noyob imkoniyatdir. Biroq, e’tiborga olish kerak bo‘lgan bir qancha omillar mavjud. Xususan, sayyohdan sayohatga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi va Falastinda bo‘lishi davomida yuzaga keladigan har qanday to‘siqlarga tayyor bo‘lishi so’raladi. (Pareeag, 2018)

Quddus, Vifleym va Jeriko shaharlari bo‘ylab sayohat taklif qilayotgan mahalliy sayyoqlik agentligi “Yangi yerlar” : “Ko‘pchilik o‘ylashi mumkin bo‘lgan fikrlardan farqli o‘laroq, Falastin sayohatchi o‘zini to‘liq xavfsizlikda his qiladigan joy”, - deya ishontirmoqda (Ayman, 2020). Bundan tashqari Jenin, Nabluz, Qumron, Xebron va Ramalla



kabi qadimiy shaharlar tashrif buyuruvchilar uchun ajoyib sayohat imkoniyatlarini taklif qiladi (Griffouieres, 2016). Jumladan, Vifleymga dunyoning turli burchaklaridan sayyoohlар, boshqa narsalar qatori, Iso payg'ambar tug'ilgan joyda qurilgan Tug'ilish cherkovini ziyorat qilish uchun kelishadi. Bu yerda, shuningdek, biz Isroil va Falastin o'rta sidagi murakkab hududiy vaziyatning oqibati bo'lgan mashhur Isroil ajratish devori (West Bank barrier) ni ko'rishimiz mumkin (Thielin, 2019).

Falastinga sayohatni Quddussiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uchta yirik dinning muqaddas shahri bo'lgan Quddusga ham isroilliklar, ham falastinliklar da'vo qilishadi. Shaharning sharqiy qismi Falastinga tegishli, g'arbiy qismi esa Isroilniki hisoblanadi. (Griffouieres, 2017). Gap shundaki, shaharning Falastinga tegishli qismida barcha eng muhim muqaddas joylar, jumladan, musulmonlar uchun Al-Aqso masjidi, yahudiylar uchun Dovud shahri va G'arbiy devor, nasroniylar uchun esa Ma'bad tog'i mavjud (LO, 2017).

Yuqorida takidlanganidek, Falastinda borib ko'rish mumkin bo'lgan joylar juda ko'p. Shunga qaramay, nafaqat sayohatchi, balki Falastin turizm sanoati uchun ham turli qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, Isroil-Falastin mojarosi Falastindagi turizmga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pgina tarixiy obidalarni bosib olingan Falastin hududlarida, G'arbiy Sohilda va Sharqiy Quddusda topish mumkin. G'azo sektori blokadada bo'lganligi sababli unga kirishning imkoni yo'q (Laura, 2016). Shuning uchun sayyoohlarga yerga borishdan oldin mintaqadagi siyosiy iqlim haqida bilib olishi kerak. Bu yerga yetib kelgach u ko'plab nazorat punktlari va yo'llarda sabr-toqatli bo'lishi kerak (Pareeag, 2018). Ikkinchidan, G'arbiy Sohil va Sharqiy Quddusdagi noqonuniy aholi punktlarining kengayishi "ikki davlat" yechimini, shuningdek, Falastin turizm sanoatining mavjud bo'lishini xavf ostiga qo'ymoqda (Ismail, 2020). Bosib olingan hududlarda falastinliklar va ko'chib kelgan yahudiylar o'rta sidagi to'qnashuvlar ehtimoldan holi emas. Shu sababli sayyoohlarga bir nechta ehtiyyotkorlik qoidalariga rioya qilish tavsiya etiladi: hamma joyga bormaslik, namoyishlardan qochish, o'z davlatlarining elchixonasi yoki konsulligi bilan aloqada bo'lish va hokazo (Griffouieres, 2016).

Falastinga faqatgina Isroil orqali borish mumkin (Amar, 2017). Salbiy tomoni shundaki, pasportda Isroil muhrining bo'lishi dunyoning ayrim Falastin masalasi bilan



birdam bo‘lgan mamlakatlari : Livan, Jazoir yoki Eronga kirish huquqidan mahrum qiladi (Laura, 2016). Shuningdek, Isroilga boradigan sayyoh mamlakatga kirish sabablari haqida savol berishdan qochib qutula olmaydi. Eng muhim, Falastinga tashrif buyurish to’g’risida og‘iz ochmaslik lozim. Bu to‘g’ridan-to‘g’ri ortga qaytarilishni anglatishi mumkin (Camille, 2019).

Falastindagi turizm haqida gapirish birmuncha mintaqaning geosiyosiy holatini bilishni talab qiladi. Isroil-Falastin mojarosining sabablarini so‘roq qilmasdan Falastinga sayohat taklif qiladigan sayyoqlik kompaniyalari bunday nozik mavzuda jiddiy xatolikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Xalqaro Amnistiya tashkiloti, masalan, o‘zining 2019-yil 30-yanvardagi hisobotida TripAdvisor, Booking.com, Expedia, Airbnb kabi turizmga ixtisoslashgan raqamli kompaniyalarni Isroil bosib olgan Falastin hududlarida mehmonxonalar, mehmon uylari, tadbirlar va sayohatlar taklif qilish orqali urush jinoyatlaridan foyda olishda aybladi (International, 2019).

Albatta, mustamlakachilik Falastin xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilashiga jiddiy xavf tug‘diradi. Bundan tashqari, u falastinliklarning madaniy va tabiiy obidalarga kirish hamda ulardan foydalanish huquqini rad etadi. Isroil uchun turizm noqonuniy aholi punktlarini Isroilning tarixiy obidalari deb da’vo qilish va Injilga asoslangan diniy turizmni tashkil etish orqali ularni Isroil hududi sifatida qonuniylashtirish uchun imkon beradi (Ahmad, 2020).

Gap shundaki, Falastin hukumati faqat G‘arbiy Sohilning bir qismida hokimiyatga ega, G‘azo sektorini esa Xamas boshqaradi (Leclerc, 2020). Bu esa vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Oslo kelishuvlariga ko‘ra, G‘arbiy Sohil uchta hududga bo‘lingan: A, B va C. A hududi faqat Falastin ma’muriyati tomonidan nazorat qilinadi. B hududi Falastin ma’muriyati va Isroilning birgalikda nazorati ostida. G‘arbiy sohilning 60 foizini tashkil etuvchi C zonasi esa faqat Isroil nazorati ostida (Oxfam, 2017). Aytish kerakki, Oslo kelishuvlari B va C zonalarini falastinliklarga bosqichma-bosqich o‘tkazishni nazarda tutar edi. (Oxfam, 2017) Biroq, Oslo kelishuvlaridan falastinliklar olgan yagona narsa bu kolonizatsiya bo‘ldi (Kriegel, 2020).



Bosib olingen hududlarda Isroil o‘z qonuni va hokimiyatini o‘rnatib, o‘z bilganicha harakat qilmoqda. Jumladan, Falastin avtomobillarining Isroilga, Sharqiy Quddusga, Isroil kuchlari nazorati ostidagi G‘arbiy Sohildagi ayrim sayyoqlik joylariga kirishi taqiqlangan. Bundan tashqari, Falastin avtomobilari G‘azo va G‘arbiy Sohil o‘rtasida harakatlana olmaydi va G‘arbiy Sohildagi ko‘plab yo‘llarga cheklangan kirish imkoniyatiga ega (Department, 2017). Isroil nafaqat G‘arbiy Sohilga, yoki Sharqiy Quddus va G‘azo sektoriga kirish, balki yer va resurslar, jumladan, suv, haydaladigan yerlar, telekommunikatsiya va elektr uzatish liniyalari, O‘lik dengiz va “C” hududida joylashgan barcha arxeologik yodgorliklar ustidan nazorat qiladi. (Departament, 2017) Shubhasiz, bu Isroilga falastinliklarni xohlagancha manipulyatsiya qilish imkonini beradi.

Isroil o‘z ixtiyori bilan bosib olingen hududlardan turizm maqsadlarida foydalanmoqda. Egallab olingen Sharqiy Quddusda qurilgan Quddus devorlari milliy bog‘i, shuningdek, “Injil aylanmasi” Sharqiy Quddusdagи falastinliklarning uylarini buzish uchun bahona bo‘ldi (Ahmad, 2020). Yana bir joy - Tel Shilo bo‘lib, u yerda Bibliya mavzulari asosida qurilgan bog‘ har yili o‘n minglab sayyoohlarni jalb qiladi. Isroilning ushbu obyektlarni diniy turizm uchun o‘zlashtirishi - bosib olingen Quddusdagи boshqa ko‘plab joylar, masalan, Dovud shahri, Zaytun tog‘i va Eski shaharga qo‘sishimcha ravishda - yahudiylarning shu joyga abadiy mansubligi haqidagi sionistik hikoyalarga asoslanadi (Ahmad, 2020).

Isroil tomonidan kiritilgan cheklov larga qaramay, Falastin o‘z hududiga nisbatan huquqlaridan foydalanishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Shunday qilib, u 2011 yilda Yuneskoning to‘liq a’zosi bo‘ldi (Tessier, 2011). Bu, shubhasiz, Isroil ma’qullamaydigan va falastinliklarning mojaroni davom ettirishga qaratilgan qadami deb biladigan qaror. Har holda bu qarorni xalqaro miqyosda Falastinni davlat sifatida tan olish yo‘lidagi oldinga qadam sifatida ko‘rish mumkin. Biroq, Isroil o‘zini tinchlik muzokaralariga tayyor qilib ko‘rsatsa ham, uning yonida yangi davlat paydo bo‘lishini istamasligi aniq. Aksincha, u Falastinning o‘z huquqlarini tiklashga qaratilgan urinishlariga qarshi qarshi choralar ko‘rayotganga o‘xshaydi. Shunday qilib, Isroil bosib olingen Falastin hududlari ustidan hech qanday huquqqa ega emasligini e’lon qilgan va Sharqiy Quddusda



olib boriladigan ishlarni taqiqlashni so‘ragan Yunesko bilan munosabatlarini uzdi (Dubessy, 2016).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Falastin turizmi juda cheklangan va Isroil-Falastin mojarosi hal etilmaguncha shunday bo‘lib qoladi. Falastinga tashrif buyurishni istagan sayohatchilar, shuningdek, Falastin sayyoqlik agentliklari Falastin hududlari mustamlaka qilinishi sababli ko‘plab cheklowlarga duch kelishmoqda. Isroil esa turizmni rivojlantirish uchun yerlar va tarixiy obidalarni o‘zlashtirib olishda erkin harakat qilmoqda. U bosib olingan yerlarga qonuniylik berish uchun turizmdan, ayniqsa diniy turizmdan foydalanadi. U Falastin bilan imzolangan kelishuvlarni ham, ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi Parij protokolini ham hurmat qilmaydi (International, 2019). Falastin, o‘z navbatida, Isroil bilan muzokaralarda teng rol o‘ynash imkonini beradigan xalqaro tan olinish uchun kurashmoqda. Afsuski, Yunesko kabi xalqaro tashkilotlarning ovozi bilan Isroilga bosim o‘tkazishga bo‘lgan harakatlar natija berayotgani yo‘q. Faqatgina Isroilga qarshi qattiq xalqaro bosim Falastin va Isroil o‘rtasida tinchlik o‘rnatishga imkon berishi mumkin. Ana shunda Falastin davlati nihoyat xavfsiz va belgilangan chegaralar ichida o‘rnatilishi mumkin. Shundagina u barcha sohalar qatori turizmni mustaqil rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

**Ahmad Halah** Le tourisme au service de l’occupation et de l’annexion [B Интернете] // Agence Media Palestine. - 13 octobre 2020 г.. - <https://agencemediapalestine.fr/blog/2020/11/02/le-tourisme-au-service-de-loccuper-et-de-lannexion/>.

**Amar Stéphane** La Palestine, terre prisée des touristes [B Интернете]. - 24 août 2017 г.. - <https://info.arte.tv/fr/la-palestine-terre-prisee-des-touristes>.

**Ayman** Voyage à la rencontre des Palestiniens entre Jérusalem, Bethléem et Jéricho [B Интернете] // Les nouvelles terres. - 2020 г.. - 2020 12 25 г.. - <https://lesnouvellesterres.fr/voyages/details/21/26-rencontre-palestiniens.html>.

**Camille** Formalités : comment entrer en Territoire palestinien ? [B Интернете] // evaneos. - 2019 г.. - <https://www.evaneos.fr/palestine/voyage/informations-pratiques/12713-formalites-d-entree/>.



**Department PLO Negotiation Affairs** Israel's Exploitation of Palestinian tourism and International complicity: Tourism as a tool to normalize occupation [В Интернете]. - décembre 2017 г.. - <https://www.nad.ps/sites/default/files/tourism-as-a-tool-to-normalize-the-occupation.pdf>.

**Dubessy Frédéric** L'esplanade des Mosquées à Jérusalem au coeur d'une polémique entre l'Unesco et Israël [В Интернете] // Econostrum. - 14 octobre 2016 г.. - [https://www.econostrum.info/L-esplanade-des-Mosquees-a-Jerusalem-au-coeur-d-une-polemique-entre-l-Unesco-et-Israel\\_a22352.html](https://www.econostrum.info/L-esplanade-des-Mosquees-a-Jerusalem-au-coeur-d-une-polemique-entre-l-Unesco-et-Israel_a22352.html).

**Griffoulières Camille** Avis des voyageurs sur Jenin [В Интернете] // Evaneos. - 2017 г.. - <https://www.evaneos.fr/palestine/voyage/etape/17927-jenin/>.

**Griffoulières Camille** Découvrir les lieux d'intérêts en Palestine [В Интернете]. - 2016 г.. - 25 décembre 2020 г.. - <https://www.evaneos.fr/palestine/voyage/etape/>.

**International Amnesty** Destination: Occupation [В Интернете]. - 2019 г.. - <https://www.amnesty.org/fr/documents/mde15/9490/2019/fr/>.

**Ismail Majdi** Guterres : La Solution à deux États devient de plus en plus difficile à atteindre [В Интернете]. - 29 novembre 2020 г.. - <https://www.aa.com.tr/fr/politique/guterres-la-solution-%C3%A0-deux-%C3%A9tats-devient-de-plus-en-plus-difficile-%C3%A0-atteindre/2059893#>.

**Kriegel Danièle** Annexion de la Cisjordanie : « L'Autorité palestinienne va s'effondrer » [В Интернете] // Le Point. - 30 septembre 2020 г.. - [https://www.lepoint.fr/monde/annexion-de-la-cisjordanie-l-autorite-palestinienne-va-s-effondrer-30-06-2020-2382439\\_24.php#](https://www.lepoint.fr/monde/annexion-de-la-cisjordanie-l-autorite-palestinienne-va-s-effondrer-30-06-2020-2382439_24.php#).

**Laura** Pourquoi voyager en Israël et Palestine ? [В Интернете] // OlalaChick.com. - 2016 г.. - <http://olalachick.com/pourquoi-voyager-en-israel-palestine/>.

**Leclerc Jacques** Palestine (sous occupation palestinienne) [В Интернете] // CEFAN. - 2 septembre 2020 г.. - <https://www.axl.cefan.ulaval.ca/asie/palestine.htm>.

**LO Ndeye Khady** Pourquoi Jérusalem est importante [В Интернете]. - 7 décembre 2017 г.. - <https://www.bbc.com/afrique/monde-42263235#:~:text=le%20proph%C3%A8te%20Mohamed.,J%C3%A9rusalem%20est%20la%20ville%20trois%20fois%20sainte,,synagogue%20de%20Belz%20se%20c%C3%B4toient..>

**Oxfam** Découpage de la Cisjordanie : zoom sur la Zone C [В Интернете] // Oxfam Solidarité. - 2017 г.. - [https://www.oxfamsol.be/fr/decoupage-de-la-cisjordanie-zoom-sur-la-zone-c#:~:text=Suivant%20l'accord%20int%C3%A9rimaire%20de,et%20Isra%C3%A9e%20\(c%C3%AAntr%C3%B4le%20militaire\)..](https://www.oxfamsol.be/fr/decoupage-de-la-cisjordanie-zoom-sur-la-zone-c#:~:text=Suivant%20l'accord%20int%C3%A9rimaire%20de,et%20Isra%C3%A9e%20(c%C3%AAntr%C3%B4le%20militaire)..)



**Pareeag Octavia** La Palestine promet un voyage des plus bibliques [В Интернете] // Easy Voyage. - 2018 г.. - 25 décembre 2020 г.. - <https://www.easyvoyage.com/palestine>.

**Tessier Benoit** La Palestine devient membre à part entière de l'Unesco [В Интернете] // Le monde. - 2011 г.. - [https://www.lemonde.fr/proche-orient/article/2011/10/31/l-unesco-se-prononce-sur-la-demande-d-adhesion-de-l-autorite-palestinienne\\_1596258\\_3218.html](https://www.lemonde.fr/proche-orient/article/2011/10/31/l-unesco-se-prononce-sur-la-demande-d-adhesion-de-l-autorite-palestinienne_1596258_3218.html).

**Thielin Florie** 10 lieux à visiter en Cisjordanie (territoire palestinien) [В Интернете] // Voyageonsautrement.com. - 26 juin 2019 г.. - <https://www.voyageons-autrement.com/10-lieux-a-visiter-en-cisjordanie-territoire-palestinien>.

